

## **O’SMIRLIK DAVRIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI**

*Eshonqulova Lobar Vahobovna*
*Toshkent viloyati Olmaliq shahar 2-umumiy o'rta ta'lif maktabi psixolog*

**Annotatsiya:** maqolada o’smirlik — bolalikdan kattalikka o’tish davri bo’lib, fiziologik va psixologik jihatdan o’ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O’smirlik balog‘atga yetish davri bo’lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo’lishi bilan ham xarakterlanishi va psixologik xolatlari bayon etilgan .

**Kalit so`zlar:** O`smirlik davri, og`ir davr, psixik rivojlanish, biologik rivojlanish, o`zaro bog`liqlik, inqiroz, psixofiziologik sabab, o`z-o`ziga baho berish, xarakter,

### **KIRISH**

O’smirlik yoshining klassik tadqiqotiga nazar solsak, unda turli xil nazariyalar, farazlar va fundamental izlanishlar borligining guvoxi bo’lamiz. O’smirlik yoshiga xos yorqin Psixologik konsepsiyalardan biri XX asrning boshlarida L.S.Vigotskiy (1930) tomonidan yaratilgan madaniy-tarixiy nazariya bo’lib, unda mazkur yosh simptomatikasi, o’smir psixologiyasidagi barqaror va tarixiy o’zgaruvchanlik, uning fenomenlariga oid ilmiy konsepsiyalarning interpretatsiyasi berilgan. L.S.Vigotskiy ta’lim va taraqqiyotning o’zaro masalasini ko’rib chiqdi. Bunda u quyidagi vaziyatni keltirib chiqardi. Bolaga psixik hayotidagi qiyin shakllar muloqot jarayonida shakllanadi, demak muloqot nisbatan tizimlashtirilgan shaklda – o’qitishda rivojlanishni shakllantiradi, yangi psixik ma’lumotlarni vujudga keltiradi, oliy psixik funksiya takomillashtiriladi. Ta’lim psixikaning shakllanishida muhim rol egallab, uning shakllari esa rivojlanish jarayonida o’zgaradi. O’smirlik yoshini pubertat davr deb atagan Sh.Byuler o’z ishlarida ushbu davrning biologik mohiyati ochib berilgan. Pubertat davr,-bu biologik o’sish davri bo’lib, jinsiy yetilish o’z nihoyasiga yetadi ammo jismoniy rivojlanish davom etadi. U pubertat davrdan oldingi bosqichni insonning bolalik, ushbu davming tugashini o’smirlik deb ataydi. Sh.Byuler pubertat davrni ikkiga: psixik va jismoniy davrlarga ajratadi. O’smirning yetilishiga ta’sir etuvchi tashqi va ichki qo’zg‘atuvchilar undagi o’zidan o’zi qoniqishi va xotirjamligini izdan chiqarib, uni o’zga jinsni qidirishga undaydi. Biologik yetilish uni izlanuvchan qilib qo’yadi va uning «Men»ida «U» bilan uchrashish istagi tug‘iladi. Ya’ni Sh.Byuler psixik pubertatlikni tanadan farqlashga harakat qiladi. Jismoniy yetilish o’g‘il

bolalarda o'rtacha 14-16 yosh, qiz bolalarda 13-15 o'smirlik davridaga to'g'ri keladi. Albatta, bunday farqlashlarda shaxar va qishloq, alovida mamlakatlar va xatto iqlimning ta'siri hisobga olinadi. Pubertatlikning quyi chegarasi 10-11 yosh, yuqori chegarasi 18 yosh bo'lishi kerak. Ushbu davrning negativ xususiyatlari sifatida o'smirning urishqoqligi, injiqligini ifodalovchi jismoniy va ruxiy toliqish, notinch, oson qo'zg'aluvchi holat, yuqori sezuvchanlik hamda qo'zg'aluvchanlikni ko'rsatadi. O'smirlarning o'zlaridan qoniqmasliklari asta atrofdagilaridan ham qoniqmasliklariga sabab bo'lib, boshqacha tus intilishlari bilan uyg'unlashadi va turli salbiy fikrlar shakllanishiga olib keladi. Ya'ni, o'smirlarda «sust melanxoliya» va «tajovuzkor himoya» shakllanadi. Mazkur davrning ijobiy xususiyatlaridan biri tarzida qandaydir go'zallikning anglangan kechinmalarini, muxabbat tuyg'usini misol qilib keltiradi. Demak, Sh.Byulerning ilmiy urinishlari pubertat yoshni organik yetilish bilan psixik rivojlanishning uyg'unlikda kechishini ko'rsatishga qaratilgandir. Sh.Byulerning izlanishlariga tayangan G.Getser pubertat davr salbiy bosqichining 13-16 o'smirlik davridai oralig'ida o'y-xayollarga berilish, yaqin do'stga ehtiyoj sezish va «do'stni ishlash»ga urinishda ijobiy bosqichga o'sib o'tishini ta'kidlaydi. Fiziologik o'zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarning mukammal rivojlanishi va o'sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashida namoyon boladi. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bu davrda ichki sekretsiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to'qimalarining o'sishi va muhim ichki sekretsiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak usti bezi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo'y o'sishi tezlashadi, jinsiy balog'atga yetish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bolishi) amalga oshadi. Ko'krak qafasi ham gavdaning bo'y o'sishiga nisbatan sekin rivojlanadi. Buning natijasida ayrim o'smirlarning yelkasi, ko'kragi tor bolib qoladi, bu esa o'z navbatida kislород yetishmasligiga, nafas qisishiga olib keladi. Kislород yetishmasligi natijasida ruhiy faoliyatga putur yetadi. Bu davrda yurak kengayishi bilan qon tomirlari ham yo'g'onlashadi. Qon aylanish sistemasining qayta qurilishi, vegetativ nerv sistemasidagi barqarorlik qon aylanishini buzadi va o'smirda ba'zi qon bosimining ortishi ro'y beradi.

Bu davrda ayniqsa jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi. O'smirda ro'y beradigan biologik-jismoniy o'zgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. O'smirlik yoshida ularning xulqatvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bolmaydi. Jinsiy yetilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib bu ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir. O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. O'smirlik yoshiga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni o'rgana turib, o'smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib kamolga yetish yo'llarini va unga ta'sir

etadigan biologik va ijtimoiy omillarni bevosita ta'sirini hamda ahamiyatini tushunishimiz mumkin. Bu davrda o'smir baxtli bolalik bilan xayrashgan lekin, kattalar hayotida xali o'z o'rnni topa olmagan murakkab holatda bo'ladi. O'smirlik davri "O'tish davri", "Inqiroz davri" (krizis), "Qaltis davr", "Qiyin davr", "Balog'at davri" kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlar bilan xarakterlanadi. O'smirlik darida kattalarga nisbatan agressiv munosabatning paydo bo'lishi, negativizm singari noxush xulq-atvor alomatlari o'z-o'zidan kelib chiqadigan bevosita jinsiy yetishlish tufayli paydo bo'ladigan belgilar bo'libgina qolmay, balki ularga bilvosita ta'sir ko'rsatadigan o'smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar vositasi orqali: uning tengdoshlari, jamoadagi mavqeい, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi o'rni sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. O'smirlik davrida yetakchi faoliyat – bu o'qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir. O'smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi bu do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar normalarni aniqlash va egallashdir. O'smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki u to'la o'rtoqlik kodeksiga bo'ysunadi. O'smirlik insonni balog'atga yetish davri bo'lib, o'ziga xos xususiyati bilan kamolotning boshqa pog'onalaridan keskin farq qiladi. O'smirda ro'y beradigan biologik o'zgarishlar natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. Balog'at davriga 11-15 yoshli qizlar va o'g'il bolalar kiradilar.

E.Shprangerning izdoshlaridan biri V.Shtern o'smirlik yoshini shaxs shakllanishining asosiy bosqichlaridan biri deb qaraydi. V.Shtern «Do'stingni ko'rsatsang, kimligingni aytaman» degan naqlga «Hayotingdagi eng qimmatli kechinmangni ayt, men sening kimligingni aytaman» degan ma'no berib, uni izohlashga harakat qiladi. Chunki o'smir hayotining mazmunini tashkil etuvchi kechinmalar ta'sirida uning shaxsi shakllanadi. qimmatga ega kechinmalar esa uning shaxsini tiplarga ajratishga yordam beradi. Shu tariqa V.Shtern oltita tipni ajratadi:

- a) nazariy tip-shaxsning barcha intilishlari borliqni anglashga qaratiladi;
- b) estetik tip-bunday shaxs uchun ob'ektiv borliqni anglash yot bo'lib, u individual tanlanganlikka ega;
- v) iqtisodchi tip-bunday shaxsning sa'y-harakatlaridagi shoiri ko'proq foyda (natija)ga qaratilgan bo'ladi;
- g) ijtimoiy tip-hayotining mazmunini muxabbat, muomila va o'zgalar uchun yashash tashkil etadi;
- d) siyosiy tip-bundaylar uchun mansabga intilish, ta'sir o'tkazish va buyruq berish xosdir;
- y) diniy tip-har qanday voqeani ham hayotning va dunyoning mohiyati bilan xaspo'shlashga urinadi.

V.Shternning fikricha, o'tish davri nafaqat ideal va intilishlar, hislar hamda fikrlarning yo'nalganligi, balki harakatlarning o'ziga xos siymosi (obrazi) hamdir. U buni bolalikning o'yinlari bilan kattalikning mas'uliyatli faoliyati oralig'idagi holat

deb atab, unga «jiddiy o'yinlar» deb nom beradi. Jiddiy o'yinlar o'smirning maqsad qo'yishiga, turli qiziqishlarga o'z munosabatini bildirishi va qiyosiy taxlil qilishidagi ikkilanishlarini bartaraf etishida hamda uni irodasining mustahkamlanishiga imkon berishini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, o'smirlilik yoshining klassik tadqiqot davri XX asrning boshlarida bolalar psixologiyasining mustaqil fan sifatida rivojlanish bosqichiga to'g'ri kelib, eng qiyin psixologik yosh deb tan olindi va o'smir shaxsi rivojlanishidagi har qanday o'zgarishlar tadqiqotchilar tomonidan jinsiy yetilish jarayoni bilan bog'lab tushuntiriladi. Shaxsning axloqiy jihatdan, xatti-harakatlarining axloqiy etnik nomalarini o'zlashtirish o'smirlilik yoshining muhim psixologik xarakteristikalaridandir. O'smirlilik yoshida faqat jismoniy taraqqiyot yuzaga kelmay, balki bolaning shaxsi ham sezilarli rivojlanadi. Bola shaxsining rivojlanishi tevarak-atrofdagi voqelikning ta'siri ortida mактабдаги, та'лим тарбиya protsessining ta'sirida, kolektiv va tarbiyachilarning g'oyaviy raxbarligi ostida amalga oshadi. O'smirlilik yoshi xatti-harakatlarida suyana boshlaydigan dunyoqarashlarning, ma'naviy e'tiqod, prinsip qoida, idealarining, baholash mulohazalari sistemasining tarkib topishi davridir. Agar kichik maktab yoshidalik davrida u yoki kattalarning, ya'ni o'qituvchilar va otonalarning bevosita ko'rsatmalari bilan, yoki o'zining tasodifiy va impulsiv istaklari ta'siri bilan harakat qilgan bo'lsa, endilikda uning uchun o'z xatti-harakatlarining prinsipi, o'zining qarashlari va e'tiqodlari asosiy ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi va tarbiyachi shuni nazarda tutishi lozimki, xuddi ana shu yoshda axloqiy ong taraqqiyotiga zamin qo'yiladi. O'smir turli narsalarni mutlaqo aniq differensiallaydi. Agar tanaffus paytida o'ynab turib stulni sindirib qo'ysa va uni ustaxonada tuzatish lozim bo'lsa, bu jazo emas. Agar o'zining iflos qilgan joyini supurishga majbur qilinsa bu ham jazo emas. Bularning mantiqi o'smir uchun ravshan: bu jazolash emas, balki xati-harakatlarining natijalarini tuzatishdir.

Psixologlar o'z oldilariga o'smirlar ma'naviy ongingin mazmunini, ularning axloqiy tushunchalari va tasavvurlarini o'rganish vazifasini qo'yganlar. Tadqiqotlar umuman o'smirlar ma'naviy ongingin yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi. O'smirlarning ko'pchilik qismi yoshlarga munosib ma'naviy tushunchalarni to'g'ri tushunadilar. Bir necha misollar keltiramiz. qat'iylik->bu, odam eng qiyin ishlarni amalga oshirishga kirishganda, uning hech qanday muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqlay ishni oxirigacha olib borishida ko'rindigan xususiyatdir» (12yosh) «Qat'iylik yaxshi odamda ham rivojlanadi, ammo yomon odamda yomon ishlarga, yaxshi odamda esa yaxshi ishlarga xizmat qiladi.» (12yosh) o'smirlilik yoshining oxiriga kelib albatta, sezilarli o'sadi. «Kamtarlik-bu, o'ziga oqilona baho bera bilish, o'z-o'ziga va xatti-harakatlariga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lischdir.» E'tiqod va dunyoqarashning tarkib topishi bilan chambarchas bog'langan holda o'smirlarning axloqiy ideallari ham yuzaga kela boshlaydi. Bu ideallar etarli darajada chuqur, mazmundor, faoldir va bu

ideallar o'ziga xos axloqiy etalon bo'lib xizmat qiladi, o'smir esa o'z xatti-harakatlarini ana shu etalon bilan tenglashtiradi. Kichik yoshdagi o'smirlar uchun odatda qandaydir konkret bir kishi ideal bo'ladi bu odam o'smir yuksak darajada baholaydigan sifatlarni o'zida gavdalantirgan bo'ladi. Ko'pgina bunday ideal ota-onalar, o'qituvchilar yoki yaxshi ko'radigan kitobidagi va kinofilmidagi qaxramonlardir. Katta yoshdagi o'smirlarda ideal sifatida majmui bo'l mish umumlashgan obrazlar ideallar sifatida yuzaga chiqsa boshlaydi. O'smirlilik davrida yetakchi faoliyat shaxsiy intim muloqotdir. O'smirlilik davrida yetakchi faoliyat — bu o'qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir. O'smirlilik davri muloqotining asosiy vazifasi — bu do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar normalarini aniqlash va egallashdir.

## **XULOSA**

O'smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u tola o'rtoqlik kodeksiga bo'ysunadi. O'smirlarni o'z tengdoshlari bilan muloqotda bolishi g'oyat katta ahamiyatga egadir. O'smirlar do'stlik, o'rtoqlik va o'zaro yordamlashuvni hamma narsadan yuqori qo'yadilar: ana shunday o'zaro munosabatlar, o'spirinlik yillarida ham davom eta beradi. Bunda o'smirlar va ilk yoshdagi o'spirin o'quvchilarniig xulq-atvorlariga do'stlari ota-onalar va pedagoglarga nisbatan bir necha marta kuchliroq ta'sir etadilar. Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, o'smir bolaning yetilmaganligi va tajribasizligi uni tevarak-atrofdagi kimsalardan madad axtarishga majbur qiladi. O'smir bolaga uning istaklarini tushunadigan va ularni amalga oshirishga yordam beradigan do'st kerak.

## **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Jalolova M. SENSORY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL AGE //Archive of Conferences. – 2021. – Т. 25. – №. 1. – С. 153-157.
2. Jalolova, Mohinur. "SENSORY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL AGE." Archive of Conferences. Vol. 25. No. 1. 2021.
3. Jalolova, M. (2021, May). SENSORY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL AGE. In Archive of Conferences (Vol. 25, No. 1, pp. 153-157).
4. ИСАКОВА М. Т. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН) //СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН) Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Центр инновационных технологий". – №. 8. – С. 45-52.
5. ИСАКОВА, МУЬАЗАМ ТУЛКИНОВНА. "СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН)." СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН) Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Центр инновационных технологий" 8: 45-52.
6. 13.ИСАКОВА, М. Т. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН). СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН) Учредители: Общество с

ограниченной ответственностью" Центр инновационных технологий", (8), 45-52.

7. Закирова М. С. РОЛЬ УЗБЕКСКИХ И РУССКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ РЕБЕНКА //ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ. – 2021. – С. 325-331.
8. Закирова, Мухаббат Сабировна. "РОЛЬ УЗБЕКСКИХ И РУССКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ РЕБЕНКА." ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ. 2021.
9. Закирова, М. С. (2021). РОЛЬ УЗБЕКСКИХ И РУССКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ РЕБЕНКА. In ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ (pp. 325-331).

